

O'YINCHOQLARNING BOLA PSIXIKASINING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI**Meliqo'ziyeva Malohat Obidjon qizi****Chirchiq davlat pedagogika universiteti****Jismoniy madaniyat fakulteti Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi****malohatmeliquziyeva@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19345912>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'yinchoqlarning maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasiga ko'rsatadigan ta'siri, ularning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishdagi funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'yinchoqning nafaqat moddiy buyum, balki madaniyat va ijtimoiy munosabatlar quroli sifatidagi o'rni, shuningdek, turli xildagi o'yinchoqlarning (didaktik, syujetli, texnik) bolaning "Men" konsepsiyasini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston psixologiya maktabi vakillarining qarashlari asosida zamonaviy o'yinchoqlar industriyasining bolalar ruhiyatiga xavf soluvchi jihatlari va ularni tanlashning psixopedagogik mezonlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'yinchoq, psixik rivojlanish, simvolik tafakkur, o'yin terapiyasi, sensor tarbiya, ijtimoiylashuv, mayda motorika, psixologik xavfsizlik, "o'yinchoq-antagonist", kognitiv stimulyatsiya.

KIRISH

Bola dunyoni o'yin orqali kashf etsa, o'yinchoq bu kashfiyotning asosiy quroli va "sherigi" hisoblanadi [1, 32-b.]. O'yinchoq — bu kattalar dunyosining kichraytirilgan modeli bo'lib, u orqali bola murakkab ijtimoiy munosabatlarni, predmetlarning vazifalarini va o'z his-tuyg'ularini boshqarishni o'rganadi [2, 85-b.]. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonunida ta'lim muassasalarini xavfsiz va rivojlantiruvchi o'yinchoqlar bilan ta'minlash davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida belgilangan [3, 68-b.]. L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, o'yinchoq bolaning hayoliy dunyosini reallik bilan bog'lovchi "tayanch nuqtasi"dir [4, 112-b.]. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida o'yinchoqlarning rang-barangligi ortib bormoqda, biroq har qanday o'yinchoq ham bolaning psixik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi [5, 124-b.]. Shu bois, o'yinchoqlarning psixologik tabiatini o'rganish va ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi [6, 156-b.].

O'yinchoqlar bolaning bilish jarayonlarini (idrok, tafakkur, xotira, tasavvur) shakllantirishda birlamchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, didaktik o'yinchoqlar (matryoshkalar, piramidalar, konstruktorlar) bolada tahlil va sintez operatsiyalarini rivojlantiradi. M.G. Davletshin ta'kidlaganidek, o'yinchoqlar bilan ishlash jarayonida qo'l barmoqlarining mayda motorikasi rivojlanadi, bu esa miya po'stlog'idagi nutq markazlarining faollashishiga bevosita ta'sir qiladi. Har bir bolaning hayotida o'ziga xos emotsional bog'liqlik uyg'otadigan "yaxshi ko'rgan o'yinchoq" (odatda yumshoq ayiqcha yoki qo'g'irchoq) mavjud. Psixologiyada bu o'yinchoq "o'tish obyekt" (transitional object) deb ataladi. E.G. G'oziyevning fikricha, o'yinchoq bilan o'rnatilgan bu kabi emotsional muloqot bolada empatiya (hamdardlik) va mehr-oqibat kabi insoniy tuyg'ularning shakllanishiga xizmat qiladi. Qo'g'irchoqlar, mashinalar, shifokorlar to'plami kabi o'yinchoqlar bolaning ijtimoiy munosabatlar olamiga kirishiga yordam beradi. Qo'g'irchoq o'ynash orqali qiz bolalar onalik instinktni, g'amxo'rlikni va oilaviy munosabatlarni modelini qurishadi. Mashinalar va texnik o'yinchoqlar esa o'g'il bolalarda muhandislik qiziqishlari va fazoviy yo'nalishni shakllantiradi. Jamoaviy o'yinlarda ishlatiladigan o'yinchoqlar bolalarni o'zaro kelishishga, sheriklikka va umumiy maqsad sari intilishga o'rgatadi.

V.M. Karimovaning ijtimoiy psixologiya sohasidagi tadqiqotlariga ko'ra, o'yinchoqlar bola ongida gender stereotiplari va ijtimoiy me'yorlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy psixologiyada "o'yinchoq-antagonist" tushunchasi paydo bo'ldi. Bularga tajovuzkor ko'rinishdagi maxluqlar, qurol-yarog'lar va psixikaga qo'rqinch soluvchi personajlar kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, doimiy ravishda qurol va tajovuzkor o'yinchoqlar bilan o'ynaydigan bolalarda real hayotda ham agressiv xulq-atvor ehtimoli ortadi. Haddan tashqari "tayyor" va avtomatlashgan o'yinchoqlar (o'zi gapiradigan, o'zi yuradigan) bolaning tasavvuri ishlashiga yo'l qo'ymaydi. Bolada passivlik va tayyorga ayyorlik shakllanadi.

Z.T. Nishonova ta'kidlaganidek, o'yinchoq bolaning "fantaziya qilish" huquqini o'g'irlamasligi kerak. Eng yaxshi o'yinchoq — bu bolaga o'n xil usulda foydalanish imkonini beradigan ochiq strukturali o'yinchoqdir. O'yinchoq tanlashda "psixopedagogik ekspertiza" zarurati bugun har qachongidan muhim. Ko'pgina ota-onalar o'yinchoqning narxi yoki brendiga qarab tanlov qilishadi, biroq psixologlar quyidagi mezonlarni tavsiya etadilar. O'yinchoq bolada insoniylikni va go'zallik tuyg'usini uyg'otishi kerak. O'yinchoq bolaning yaqin rivojlanish zonasida bo'lishi, ya'ni unga yangi ko'nikmani o'rgatishi lozim. Nafaqat jismoniy (zaharli bo'yoqlar), balki psixologik (qo'rquv uyg'otmaslik) xavfsizlik. O'zbek milliy tarbiyasida latta qo'g'irchoqlar va loydan yasalgan o'yinchoqlarning o'rni katta bo'lgan. Bu o'yinchoqlar ekologik toza bo'lishi bilan birga, bolaga o'z ijodini qo'shish imkonini bergan. Bugungi kunda milliy o'yinchoqlar sanoatini rivojlantirish orqali bolalarimizda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini ham shakllantirishimiz mumkin.

XULOSA

O'yinchoq — bu bolaning kichik dunyosidagi ulkan ahamiyatga ega bo'lgan vositadir. Maqolada tahlil qilinganidek, o'yinchoqlarning psixik rivojlanishdagi o'rni quyidagilarda namoyon bo'ladi. Tafakkurning simbolik va mantiqiy darajalarini rivojlantiradi. Stressni kamaytiradi va empatiyani shakllantiradi. Kelajakdagi ijtimoiy rollarni "repetitsiya" qilish imkonini beradi. Mayda motorika orqali nutq markazlarini rag'batlantiradi. Bolaga o'yinchoq sotib olish — bu unga yangi dunyo, yangi tajriba va yangi his-tuyg'u sovg'a qilishdir. Ota-onalar va pedagoglar o'yinchoqni shunchaki ovunchoq deb emas, balki shaxsni shakllantiruvchi jiddiy vosita deb qarashlari lozim. Sifatli va to'g'ri tanlangan o'yinchoq — bu sog'lom va barkamol avlodning garovidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. (2019). *Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida*. O'RQ-595-son. (32-38-betlar).
2. Davletshin, M. G. (2002). *Psixologiya va pedagogika*. Toshkent: O'zbekiston. (68-74-betlar).
3. G'oziyev, E. G'. (1994). *Yosh davrlari psixologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi. (112-118-betlar).
4. Arzibayev, K. O., & Sh, R. V. (2021). Effects On Performance By Electronic Training Equipment For Young Karatists.«. *Psychologi and education» Journal*, 58(2), 11488-11490.
5. ARZIBAYEV, Q. (2024). O 'SMIR SPORTCHILARDA MAQSADGA ERISHISH MOTIVATSIYASI TADQIQI. *News of the NUUz*, 1(1.9), 54-57.
6. Arzibayev, Q. (2023). O 'smir sportchilarda sport bilan shug 'ullanish motivlarini O 'rganish. *Sport ilm-fanining dolzarb muammolari*, 1(3), 18-25.
7. Arzibayev, Q. (2023). THE PROBLEM OF MOTIVATION OF SPORT ACTIVITY IN THE ANALYSIS. *European journal of education and applied psychology*, (2), 82-89.
8. Arzibayev, Q. (2023). THE APPEARANCE OF MOTIVES FOR SPORTS ACTIVITY IN ANALYSIS.

Modern Science and Research, 2(10), 694-704.

9. Ziyadullaev, K. S., Raximov, V. S., Arzibaev, Q. O., & Muxametov, A. M. (2022). Creation of a model of development of sports marketing in modernization of sports management system in Uzbekistan. *Journal of Physical Education and Sport*, 22(1), 19-25.
10. Арзибаев, К. О. (2015). РОЛЬ МОТИВАЦИИ В ЕДИНОБОРСТВЕ. *Наука и мир*, (3-3), 103-105.
11. Арзибаев, К., & Бердалиева, Ю. (2013). ВЛИЯНИЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА МОТИВАЦИЮ ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ. *SCIENCE AND WORLD*, 14.
12. Arzibayev, K. O., & Rahimov, V. S. (2021). Influence of Basketball on the Mental and Physical Development of the Personality. " *International Journal of Future of Generation Communication and Networking*, 14(1), 768.
13. Арзибаев, К. О. (2013). МОТИВАЦИЯ ДОСТИЖЕНИЯ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *SCIENCE AND WORLD*, 93.
14. Арзибаев, К. О. (2014). Роль спорта в развитии этнической толерантности. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 34, pp. 121-122). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
15. Arzibaev, K. O., & Yakubova, M. D. (2021). THE IMPORTANCE OF MOVING GAMES IN FORMATION OF A HEALTHY LIFESTYLE. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ* (pp. 122-126).
16. Arzibaev, K. O., & Karimov, U. K. (2021). INTEGRATION OF MATHEMATICS AND PHYSICAL EDUCATION. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ* (pp. 114-117).
17. Arzibaev, K. O., & Elmurodova, M. U. (2021). DEVELOPMENT IN SPORTS USING UNIQUE TECHNIQUES. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ* (pp. 3-5).
18. Arzibaev, K. O., & Tanikulova, Z. R. (2021). MECHANISMS FOR IMPROVING THE LEGAL KNOWLEDGE OF ATHLETES. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ* (pp. 117-119).
19. Arzibaev, K. O., & Rafiqov, A. U. (2021). THE ROLE OF MATHEMATICS IN SPORTS. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ* (pp. 5-8).
20. Arzibayev, K. O., & Aralov, S. A. (2016). Physical culture and social importance of sport in educating the young by the principles National Concept. In *Scientific achievements of the third millennium* (pp. 23-24).
21. Арзибаев, К. О., & Акбарова, Д. Р. (2016). Проблема здорового образа жизни в исследованиях. *Наука и мир*, (3-3), 77-78.
22. Арзибаев, К. О., & Аралов, С. А. (2016). КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Наука и мир*, 3(1), 53-54.
23. Talipdjanov, A. (2024). Futbolchilarning mashg'ulot jarayonini boshqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. *Sport Ilm-Fanining Dolzarb Muammolari*, 2(2), 22-27. Retrieved from <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/151>
24. Талипджанов А.И. Комплексный контроль и планирование подготовки футболистов: моног. – Ташкент: Ilmiy texnika axboroti-press, 2023. –152 с.

25. Talipjonov, A. (2023). Futbolda mashg'ulot jarayonini biokimyoviy nazorat qilish. *Sport Ilm-Fanining Dolzarb Muammolari*, 1(4), 84–94. Retrieved from <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/119>
26. Talipdjanov, A. (2024). Futbolda mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini nazorat qilish asosida mashg'ulot jarayonini boshqarish. *Sport Ilm-Fanining Dolzarb Muammolari*, 2(3), 21–26. Retrieved from <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/170>
27. Talipdjanov, A. (2024). Tayyorgarlik mikrotsikllarida yuklamalarni parallel rejalashtirish samaradorligini o'rganish. *Sport Ilm-Fanining Dolzarb Muammolari*, 2(1), 30–36. Retrieved from <https://sport-science.uz/index.php/journal/article/view/131>
28. Талипджанов А.И. Комплексный контроль и планирование подготовки футболистов: моногр. – Ташкент. Илмий техника axborot–press, 2023. 152 с.
29. Талипджанов, А. А., Нурматов, Б. Б., & Пармонов, А. А. (2022). Учебно-тренировочный процесс по футболу. In *International conference: problems and scientific solutions* (Vol. 1, No. 6, pp. 23-27).
30. Талипджанов, А. И. (2012). Юкори малакали футболчилар тайёрлашнинг замонавий тизими. *Укув кулланма. Т., УзДЖТИ*.
31. Талипджанов, А. И. (2023). Комплексный контроль и планирование подготовки футболистов: моног./А. И.
32. Талипджанов, А. И. (2007). Asian Cup-2007: итоги, анализ, выводы. Аналитическая работа (в соавторстве) ФФУ.
33. Акрамов, Р. А., & Талипджанов, А. И. (1994). Подготовка футболистов высокой квалификации. *Учебное пособие. Ташкент*.
34. Мавлянқариев, Б. А., Хатамов, Б. Б., Пен, А. Ю., & Талипджанов, И. Р. (2019). Стратегия повышения уровня научно-технического обеспечения пожарной безопасности сложных объектов. In *Проблемы управления безопасностью сложных систем* (pp. 100-106).
35. Талипджанов, А., & Голованова, Е. В. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ IDEFO В МОДЕЛИРОВАНИИ. In *ГОРИНСКИЕ ЧТЕНИЯ. ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ ДЛЯ АПК* (pp. 98-99).
36. Талипджанов, А. И., & Акрамов, Р. А. (2014). Анализ характерных особенностей игры в атаке лучших сборных Азии последних лет. *Педагогические науки*, (1), 33-38.
37. Талипджанов, А. И. (2014). Особенности организации обороны в лучших сборных командах Азии. *Педагогические науки*, (1), 28-32.
38. Талипджанов, А. И. (2012). О СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ СБОРНЫХ КОМАНД К ОСНОВНЫМ СОРЕВНОВАНИЯМ. *Педагогические науки*, (2), 55-58.
39. ТАЛИПДЖАНОВ, А. БИОХИМИЧЕСКИЙ КОНТРОЛЬ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА В ФУТБОЛЕ. Санкт-Петербургский научно-исследовательский институт физической культуры КОНФЕРЕНЦИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ СИСТЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА Санкт-Петербург, 30–31 октября 2024 года Организаторы: Санкт-Петербургский научно-исследовательский институт физической культуры.